

# Improving Creativity Skills in Primary School Students in Inclusive Education

*Akbarova Muxlisa Akbarovna*<sup>1</sup>

**Abstract:** This article discusses the improvement of creative abilities and the effective development of creative activity in primary school students.

**Keywords:** creativity, education - upbringing, thinking, creativity, teacher creativity, inclusive education, method.

## Introduction

Hozirgi kunda Inklyuziv ta'limni rivojlantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanib kelmoqda. Inklyuziv ta'limga kreativlik bilan yondashish bu ta'lim tizimini rivojlanishida samarali hisoblanadi. Inklyuziv ta'limda boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars jarayonlarida ularning ehtiyojlaridan imkoniyatlaridan kelib chiqqan holatda darslarni samarali tashkil etish muhim masalalardan biri sanalmoqda.

Kreativlik tushunchasi so'nggi yillarda ta'lim – tarbiya jarayonlarida ma'lum darajada qo'llanilmoqda. Lekin bu tushunchaning mazmun va ma'nosini tahlil etishga hamda insonlarda kreativlikning shakllanganlik darajasini aniqlashga doir qator tadqiqotlar olib borilgan. Kreativlik shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkuri orqali, takrorlanmas yo'l bilan chiqib ketish, unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyati hisoblanadi.

O'qituvchi kreativligi –pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati.

“Pedagogik ijodkorlik” quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1. o'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularni o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan o'quvchilar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalb etish;
2. o'qituvchilarga o'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish, qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

## Methodology

Ijodkorlik faoliyatini alloma Farobiy “ bu jarayonda inson barcha aqliy va ruhiy fazilatlarini ishga soladi. Ijodiy faoliyatining hal qiluvchi onlari, odatda, alohida diqqat bilan, kishining kuch va qobiliyatlari mavj urgan holatlar bilan bog'liq bo'ladi “,-deb izohlaydi.

O'quvchilar o'zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar o'quvchilarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo'rquv hissi mavjud bo'lsa, fikrni noto'g'ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrasalar bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. O'quvchilarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zini

<sup>1</sup> 1st year master's student, Department of Educational Theory and Methodology, Faculty of Pedagogy, University of Information Technologies and Management



tavakkaldan olib qochish, fikrlash va hatti – harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish, shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi, boshqalarga tobe bo‘lish, har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash. Ushbu omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. O‘quvchilarni kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi kreativ shaxs bo‘lishi zarur. Bordi-yu, uning o‘zi kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasa, u holda qanday qilib, o‘quvchilarni kreativ fikrlashini rag‘batlantira oladi. O‘qituvchining o‘zi kreativ, ijodkor bo‘lsagina, o‘quvchilar ham shunday bo‘la oladi. O‘qituvchining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki darsni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta‘lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur.

## Results and discussion

Inklyuziv ta‘limda kreativlikka yondoshgan holatda darslarni tashkil qilish ya‘ni bu nogironligi bo‘lgan bolalar bn sog‘lom bo‘lgan bolalar uchun moslashgan holda kreativ ijodkorlikdan foydalanib darslarni tashkil qilish lozim. O‘quvchining bu muhitga moslashishi uchun turli xil usullardan foydalangan holatda ayniqsa kreativ yondashsa ularni sinfga va sog‘lom bolalar qatoriga, jamoasiga qo‘shilishi osonroq kechadi. Bunaqa holatlarda ko‘pincha jamoa bo‘lib ishlaydigan metodlar, o‘zlarini qiziqishlarini ochiq bayon qiladigan, guruh bo‘lib ishlaydigan va sog‘lom hamda nogironligi bo‘lgan bolalar uchun ham moslashgan bo‘lishi lozim. Ular uchun shunaqangi yondashish kerakki men qilolmayman men xohlamayman deyolishmaydigan qilib bu ishga yondashish lozim.

1	Inklyuziv ta‘lim sharoitida boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchilarida kreativlik qobiliyatini shakllantirishda o‘quvchilarning erkinligini ta‘minlash
2	Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni ijtimoiy muhitga moslashtirishda kreativ yondashish va mustaqil fikrlashga o‘rgatish
3	Kreativlik yani ijodkorlik yordamida o‘quvchilarni darslarga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish turli xil metodlardan foydalanish
4	Inklyuziv ta‘limda kreativlikka yondashishning mohiyati o‘quvchilar uchun qiziq bo‘lgan va berilgan toshiriqlarga o‘zgacha yondashish ijodkorlik qilishga undashdi
5	Umumta‘lim maktablarida darslarni kreativ tashkil etish uchun kerakli bo‘ladigan jihozlar bilan ta‘minlash
6	O‘quvchilar bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish va ularning qiziqishlarini hisobga olish

Hozirgi kunda texnika va texnologiyaning kun sayin rivojlanib borishi, bilimlarning tezlik bilan yangilanishi bo‘lajak mutaxassislarni zamonaviy sharoitlarga moslashish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi hamda yangi bilimlarga intilishini talab etadi, bu esa ta‘lim tizimida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarni mustaqil izlanish va ishlashga, kasbiy hamda hayotiy muammolarni mustaqil yechib, unga ijodiy yondoshishga o‘rgatish zaruriyatini tug‘diradi.<sup>2</sup>

Respublikamizdagi imkoniyati cheklangan bolalar ta‘lim olayotgan internat – maktablarning har bir ta‘lim oluvchiga qulay shart – sharoitlarni tizimli yo‘lga qo‘yish muhimdir. Jamiyat taraqqiyoti hozirgi bosqichda tarmoqlar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashni talab qiladi va bunda ta‘lim paradigmasi yetakchi rol o‘ynaydi. Pagogika sohasidagi barcha tadqiqotchilar va mutaxassislarning fikriga ko‘ra, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvni inson mavjud kasblarning ko‘p qirrali olamida o‘z o‘rnini aniqlamasdan va jamiyatda shaxsning ichki ehtiyojlari va qobiliyatiga mos keladigan kasbiy yo‘lni tanlamasdan turib tasavvur qilib bo‘lmaydi.”

Pedagog o‘z – o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma‘lum vaqt ichida izchil o‘qib o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta – sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Ko‘pgina o‘qituvchilar o‘zlarida kreativlik qobiliyatini mavjud emas, deb hisoblaydilar. Buni ikki xil sabab bilan asoslash mumkin: birinchidan, aksariyat o‘qituvchilar ham aslida “kreativlik” tushunchasi qanday ma‘noni anglatishini yetarlicha izohlay olmaydilar; ikkinchidan, kreativlik negizida bevosita qanday sifatlar aks etishidan behabarlar.

<sup>2</sup> “Xalq ta‘limi “ O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi Vazirligining ilmiy metodik jurnali. Toshkent 2018.6-son.b-59



## Conclusion

Ko‘z oldingizga ta’lim jarayonini yuksak mahorat bilan boshqarayotgan, uni uziga xos va qiziqarli tarzda jo‘shqinlik, zavq-u shavq bilan tashkil etayotgan o‘qituvchini keltiring. U, garchi, o‘zini kreativ shaxs yoki ijodkor deb bilmasada, biroq, kreativlikni namoyon etuvchi ta’lim jarayonini tashkil etayotganidan, unga imkon beradigan metod, usullarni qo‘llayotganligidan o‘zi ham mamnun, qolaversa, o‘quvchilarning minnatdor bo‘lishlariga erishmoqda. O‘qituvchi ta’lim jarayonida kreativ metod, usullardan qancha ko‘p foydalansa, o‘ziga va o‘zining ijodiy, kreativ imkoniyatlariga nisbatan ishonchi shuncha ortadi.

Xulosa qilib aytganimizda inklyuziv ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dars jarayonlarini tashkil etishda mahoratli malakali pedagoglarni jalb etish maqsadga muvofiqdir. Dars jarayonlariga o‘z fikrini aniq qilib yetqazib berolish va kreativ qobiliyatidan kelib chiqib ijodkorona yondashish zarur hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Xalq ta’limi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Vazirligining ilmiy metodik jurnali. Toshkent 2018.
2. “Kreativ pedagogika asoslari” darslik o‘quv - uslubiy majmua Toshkent 2016
3. N.B.Goipova,,Inklyuziv ta’lim.Gospital pedagogika’.Namangan 2024.134-bet

